



ISSN 2181-1571



FERGANA STATE  
UNIVERSITY

**FarDU.**  
**ILMIY XABARLAR**

**ILOVA TO'PLAM**  
**IJTIMOY GUMANITAR FANLAR**

**Scientific journal**  
**of the**  
**Fergana State**  
**University**



**3/2024**

<b>A.Xojimatov</b>	
Globalashuv sharoitida musiqiy qadriyatlarning estetik ta'sirchanligining o'zgarib borishi va qadrsizlanishi jarayoni .....	441
<b>B.S.Sobirov</b>	
Aktorlik faoliyatini shakllantirishda aktyorlik san'ati xususiyatlari .....	447
<b>D.A.Yuldasheva</b>	
Yangi O'zbekiston sharoitida madaniyat va san'at sohasi rivojining takomillashuvi .....	450
<b>I.I.Qirg'izov</b>	
Nomoddiy madaniy meros tarkibiga kirgan shashmaqom janiriga aksiologik munosabatning yuksalishi .....	454
<b>I.T.Yuldashev</b>	
Jamiyat ma'naviy yangilanishi jarayonida miniatyura san'atining o'rni va ahamiyati .....	457
<b>L.E.Tursunova</b>	
Yangi O'zbekistonda yoshlar estetik madaniyatini milliy musiqa tarbiyasi asosida rivojlantirish vazifalari .....	460
<b>M.Achildiyeva</b>	
O'zbek musiqa san'ati rivojining tarixiy takomil bosqichlari va yo'llari .....	466
<b>N.X.Djalalova</b>	
Musiqiy madaniyat-yoshlar estetik tafakkurini yuksaltirishda muhim omillardan biri sifatida .....	471
<b>N.R.Mansurova</b>	
Raqamli texnologiyalar vositasida talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarini rivojlantirishning texnologik asoslari .....	476
<b>O.R.Soliyev</b>	
Barokko davrida san'atning o'ziga xosligi .....	486
<b>R.A.Orziboyev</b>	
Milliy musiqamizga doir Markaziy Osiyo mutafakkirlarining asarlari tahlili .....	489
<b>R.J.Soxibov</b>	
Naqqoshlikda kompozitsiya va uning qo'llanilishi .....	493
<b>A.B.Sulaymanova</b>	
The importance of modern innovative pedagogical technologies in teaching engineering graphics .....	498
<b>U.T.Isakov</b>	
O'zbek xalqi musiqa madaniyatining milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan o'zaro aloqadorligi .....	501
<b>Z.A.Boboyeva</b>	
Yoshlarning badiiy tasavvuri va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda tasviriy san'atning o'rni .....	506
<b>J.Sh.Muydinov</b>	
O'quvchilar ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda musiqa mashg'ulotlarining ahamiyati .....	509
<b>N.M.Madaminov</b>	
Oliy ta'lim tizimida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirishning ahamiyati .....	513
<b>M.T.Yunusaliyev</b>	
Akvarel texnikasida noan'anaviy yondashuv .....	516
<b>D.Q.Oxunova, A.Sh.Hakimova</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy bilimlarni kognitiv idrok etish kompetensiyalarini rivojlantirishning zamonaviy texnologiya va metodlari .....	522
<b>D.K.Rafikova</b>	
O'quvchilarni kasbga yo'naltrishning pedagogik zaruriyati .....	526
<b>S.H.Mamajonov</b>	
Amir Temur mohir strategik .....	531
<b>D.M.Xolikova</b>	
Talabalarda innovatsion fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	534
<b>O.S.Usmonova</b>	
1-sinf o'quvchilarini mnemotexnika yordamida chiroyli yozishga o'rgatish .....	542



UO'K: 37.013:37.091.33

**TA'LIM JARAYONIDA INTERFAOL METODLAR VA ULARNING DIDAKTIK  
IMKONIYATLARI****ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ И ИХ ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ В  
ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ****INTERACTIVE METHODS AND THEIR DIDAKTIC POSSIBILITIES IN THE  
EDUCATIONAL PROCESS****Meliboyeva Gulchexra Salavatovna<sup>1</sup>**<sup>1</sup>Qo'qon davlat pedagogika instituti dotsenti**O'rinova Ozodaxon O'ljayevna<sup>2</sup>**<sup>2</sup>Farg'ona davlat universiteti dotsenti**Annotatsiya**

Maqolada ta'lim samaradorligini oshirishda interfaol metodlarning o'rni va ularning didaktik imkoniyatlari haqida so'z yuritilgan. Shu bilan birga ba'zi interfaol metodlarning foydalanish tartibi keltirilgan. Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga etkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalami hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma, malaka darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondoshuvni talab etadi. Bu esa bugungi kunda interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Shuning uchun to'g'ri qo'llanilgan interfaol metodlar ob'ektiv voqelikka oid bilimlarni chuqurlashtiradi va yaxlit hamda mashg'ulotning ilmiy- nazariy darajasini oshiradi. Ketma-ket saralangan interfaol metodlar ma'lum darajada bilish va kasbiy qiziqishini rivojlantirishga, mustaqil amaliy faoliyatni faollashtirishga olib keladi.

**Аннотация**

В статье говорится о роли интерактивных методов и их дидактических возможностях в повышении эффективности обучения. При этом представлен порядок использования некоторых интерактивных методов. Одним из важных требований к организации современного образования является достижение высоких результатов в короткие сроки, не затрачивая слишком больших умственных и физических усилий. Предоставление студентам определенных теоретических знаний в короткие сроки, формирование у них умений и компетенций к определенной деятельности, а также контроль деятельности студентов, оценка уровня приобретенных ими знаний, умений и квалификации требует высокого педагогического мастерства. Мастерство преподавателя и новый подход к образовательному процессу. Сегодня это требует использования интерактивных методов. Следовательно, правильно используемые интерактивные методы углубляют познание объективной реальности и повышают общий и научно-теоретический уровень обучения. Последовательно выбранные интерактивные методы приводят к определенному уровню знаний и развитию профессионального интереса, активизации самостоятельной практической деятельности.

**Abstract**

Article talks about the role of interactive methods and their didactic possibilities in increasing the effectiveness of education. At the same time, the order for using some interactive methods is presented. One of the important requirements for the organization of modern education is to achieve high results in a short time without spending too much mental and physical effort. Delivering certain theoretical knowledge to students in a short period of time, forming skills and competencies in them for certain activities, as well as controlling the activities of students, evaluating the level of knowledge, skills, and qualifications acquired by them, requires a high pedagogical skill from the teacher and a new approach to the educational process. This requires the use of interactive methods today. Therefore, correctly used interactive methods deepen the knowledge of objective reality and increase the overall and scientific-theoretical level of training. The sequentially selected interactive methods lead to a certain level of knowledge and professional interest development, activation of independent practical activity.

**Kalit so'zlar:** interfaol ta'lim, interfaol metodlar, an'anaviy ta'lim, suxbat, Skarabey, Mantiqiy chalkash zanjir, SWOT tahlil strategiyalari

**Ключевые слова:** интерактивное обучение, интерактивные методы, традиционное обучение, беседа, стратегии Скарабей, Логическая цепочка путаницы, SWOT-анализ

*Key words: interactive education, interactive methods, traditional education, conversation, Scarabeu, Logical Confusion Chain, SWOT analysis strategies*

## KIRISH

Ta'lim tizimiga interaktiv texnologiyalarni joriy etish orkali ta'lim samaradorligiga erishish, ta'lim-tarbiyaviy ishlar sifatini yanada yaxshilash, rakrnatbardosh kadrlar tayyorlash, bo'lajak mutaxassislarda ijodkorlik kobilyatini shakllantirish dolzarb vazifalardan biridir. Ta'lim-tarbiya foaliyatidagi barcha sa'y-darakatlar bilim beruvchi, tarbiyalovchi ustoz va murabbiylar bilan bilim oluvchi, tarbiyalanuvchi talabalar hamkorligidagi yoki mustakil mehnati, faolligi va ijodiy fikrlashidan iborat bulgan ko'pqirrali va murakkab jarayonlardir[1].

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Shuning uchun zamonaviy sharoitda ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li - bu mashg'ulotlarning interfaol metodlar yordamida tashkil etish deb hisoblanmoqda. Xo'sh, interfaol metodlarning o'zi nima? Ular qanday didaktik imkoniyatlarga ega? Ta'lim jarayonida interfaol metodlarning o'rinli, maqsadga muvofiq qo'llanilishi qanday samaralarni kafolatlaydi? Quyida ana shu kabi savollarga qisqacha javob topiladi.

Interfaol ta'lim (ingl. "interact", rus. "interaktiv"; "inter" –o'zaro, "act" – harakat qilmoq) – talabalarning bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lidagi o'zaro harakatini tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim

Mohiyatiga ko'ra interfaollik talabalarning bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklarini anglatadi. Mantiqiy nuqtai nazardan esa interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy sub'ektlarning suhbat (dialog), o'zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatni olib borishlarini ifodalaydi[3].

Ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan har bir mutaxassis yaxshi biladiki, an'anaviy ta'lim ham suhbat (dialog)ga asoslangan va bu suhbat quyidagi o'zaro munosabat shakllarida tashkil etiladi.

Interfaol ta'lim o'qitish jarayonining asosiy ishtirokchilari – o'qituvchi, talaba va talabalar guruhi o'rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg'in bahs-munozalar, o'zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda echimlarni birgalikda izlash, o'quv materiallarini o'zlashtirishda talabalarning o'zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, "o'qituvchi – talaba – talabalar guruhi"ning o'zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo'llab-quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo'lishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi.

Interfaol ta'lim texnologiyalar mohiyatiga ko'ra suhbatning "talaba–axborot-kommunikasion texnologiyalar" shaklida tashkil etilishi talabalar tomonidan mustaqil ravishda yoki o'qituvchi rahbarligida axborot texnologiyalari yordamida bilim, ko'nikma, malakalarning o'zlashtirilishini anglatadi.

O'qituvchi interfaol ta'lim yordamida talabalarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, o'z-o'zini nazorat, o'z-o'zini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil, ijodiy, tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin byoyon qilish, o'z nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning echimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqa olish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq bo'ladi. Eng muhimi, interfaol ta'lim texnologiyalarini qo'llash orqali o'qituvchi talabalarning aniq ta'limiy maqsadga erishish yo'lida o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etish, yo'naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qo'lga kiritadi[2].

Bugungi kunda respublika ta'lim muassasalarida interfaol ta'limni tashkil etishda quyidagi eng ommaviy texnologiyalar qo'llanilmoqda:

1. Interfaol metodlar: "Keys-stadi" (yoki "O'quv keyslari"), "Blis-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Munosabat", "Reja", "Suhbat" va b.

2. Strategiyalar: "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zig-zag", "Zinama-zina", "Muzyorar", "Rotasiya", "T-jadval", "Yumaloqlangan qor" va h.k.

3. Grafik organayzerlar: "Baliq skeleti", "BBB", "Konseptual jadval", "Venn diagrammasi", "Insert", "Klaster", "Nima uchun?", "Qanday?" va b[2].

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

## PEDAGOGIKA

Interfaol ta'lim metodlari o'ziga xos bo'lib, ularning har biri alohida foydalanish tartibiga ega. Shu o'rinda ba'zi bir interfaol ta'lim metodlari va ularni ta'lim amaliyotida qo'llash tartibi to'g'risida so'z yuritiladi.

**“Skarabey” strategiyasi (“Qo'ng'iz”)** talabalarda mantiqiy fikrlash qobiliyatini, xotirani, shuningdek, muayyan muammoni hal qilishda o'z fikrini ochiq, erkin ifodalash malakasini rivojlanishiga xizmat qiladi. Talaba strategiyani qo'llash jarayonida bilimlarining sifati, darajasini xolis baholash, o'rganilayotgan mavzu haqidagi tasavvuri ko'lamini aniqlash imkoniyatini qo'lga kiritadi. Strategiya, shuningdek, turli g'oyalarni ochiq, erkin, mantiqan ifodalash, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashda ham samarali sanaladi.

Strategiyadan darsning muayyan bosqichlarida turli maqsadlarda foydalanish mumkin.

Ya'ni:

Darsning boshida	Talabalarning o'quv faoliyatini rag'balantirish
Darsning o'rtasida	O'quv materialining mohiyati, mazmuni va tuzilishini belgilash
Darsning oxirida	Talabalar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash va mashg'ulotni yakunlash

Mazkur strategiya talaba tomonidan oson qabul qilinadi. Zero, u shaxsga xos fikrlash, bilish xususiyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan[1].

**“Mantiqiy chalkash zanjir”** strategiyasi tushunchalar, bildirilgan fikrlar o'rtasida bog'liqlikni yuzaga keltirish, ularni mantiqiy jihatdan ketma-ketlikda to'g'ri ifodalashga yordam beradi. Uning mohiyatiga o'qituvchi mavzuni yorituvchi ma'lumotlarni to'g'ri va noto'g'ri tartibda bayon etadi.


Mashg'ulotda strategiyani qo'llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. O'qituvchi talabalarni strategiyaning mohiyati bilan tanishtiradi
2. Talabalar bir nechta kichik guruhlariga biriktiriladi
3. Kichik guruhlariga chalkash ma'lumotlarni o'zida ifodalagan tarqatmali materiallar beriladi
4. Topshiriqlarni bajarish uchun vaqt hajmi (5 daqiqa) belgilanadi
5. Kichik guruh tarqatmali materialda ifodalangan matndagi mantiqiy xato va chalkashliklarni aniqlab, uzilgan zanjirni “ulash”ga harakat qiladi
6. Belgilangan vaqt yakunlangach, har bir guruhdan bir nafar vakil jamoani topshiriq mazmuni va guruhning javoblari bilan tanishtiradi
7. Jamoada guruhlarining javoblari yuzasidan muhokama tashkil etiladi
8. O'qituvchi jamoaning fikriga tayanib guruhlar ishini baholaydi

Izoh: o'qituvchi mustaqil ishlashini ta'minlash uchun har bir talabaga mazmunini biroz o'zgartirgan holda alohida topshiriq berishi mumkin.

“Ta'lim metodlari” bo'yicha chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligini echish. Dastlab o'qituvchi doskaga ta'lim metodlarni chalkashtirilgan holda yozib qo'yadi. So'ngra, ulardan mazkur metodlarni qaysi guruhga kirishiga qarab, og'zaki, ko'rgazmali va amaliy metodlarga tasniflashni taklif etadi.

Mashq Hikoya Videometod Munozara Didaktik o'yinlar Laboratoriya metodi Suhbat Tushuntirish Ma'ruza Kitob bilan ishlash Ilyustrasiya Demonstrasiya



“Swot-tahlil” strategiyasi muammoning asosiy to’rt jihatini yoritishga xizmat qiladi. Talabalar mavzuning mazmuniga mos muammolarni atroflicha o’rganish orqali mohiyatini yoritadi, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni izlab, hal qilish imkoniyatlarini topadi.

U yordamida muammoning quyidagi to’rt jhati tahlil qilinadi:

<b>S</b> (strength)	<b>Kuchli (ustun) jihatlari</b> (hal etilayotgan muammoning afzalliklarini yoritish)
<b>W</b> (weakness)	<b>Kuchsiz (zaif) jihatlari</b> (maqsadga erishish yo'lida tashkil etilayotgan harakatlarga ichki omillarining ta'sirini o'rganish)
<b>O</b> (opportunity)	<b>Imkoniyatlarni chamalash</b> (belgilangan vazifalarni hal etishning eng maqbul yo'llarini izlash)
<b>T</b> (threat)	<b>Tahdidni o'rganish</b> (maqsadga erishish yo'lida tashkil etilayotgan harakatlarga tashqi omillarining ta'siri aniqlash)

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy g'tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi[4].

Interfaol ta'limning eng muhim tarkibiy elementi bo'lgan interfaol metodlar o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim maqsadlarni amalga oshirishda ma'lum darajada samaradorlikka erishishni ta'minlaydi. Eng muhimi o'qituvchilar interfaol metodlarni tanlashda o'rganilayotgan mavzu, muammo yoki hal qilinishi lozim bo'lgan masalaga e'tibor qaratishlari lozim. Qolaversa, interfaol metodlarni qo'llashda o'quvchi va talabalarning yosh, psixologik xususiyatlari, dunyoqarash darajasi, hayotiy tajribalari inobatga olinsa, dars samaradorligi yanada oshadi. Bu esa o'qituvchilardan kasbiy mahorat, malaka, bilimdonlik, sezgirlik va intuisiyaga ega bo'lishni taqozo etadi.

#### XULOSA

Shunday qilib, interfaol ta'lim texnologiyalari ta'lim sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, o'qituvchi, talaba, talabalar guruhi, shuningdek, jamoa o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirish, g'oyaviy va ruhiy birlikka erishish, yagona maqsad sari intilish, har bir ta'lim oluvchi (o'quvchi, talaba)ning ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, shaxs sifatida namoyon bo'lishi uchun zarur shart-sharoit hamda muhitni yaratishda katta imkoniyatlarga ega.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovasion texnologiyalar – T.: “Iste'dod” jamg'armasi, 2008. – 180 b.
2. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. Innovasion ta'lim texnologiyalari – Toshkent: 2015. – 208 bet.
3. Ro'zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Metod.qo'll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013. – 115 b.
4. Meliboyeva G.S. Kimyoni o'qitishda zamonaviy texnologiyalar Farg'ona 2020